

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.04/29.02.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAHMUDOVA GULJAMOL FAZLIDDIN QIZI**

**EKSPERIMENTAL REVMATOID ARTRITDA TALOQNING**  
**MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA PATOGENETIK DAVOLASHDAN**  
**KEYINGI MORFOMETRIK O'ZGARISHLARNING QIYOSIY TAVSIFI**

**14.00.02 – Morfologiya**

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2025**

UO'K: 612.416+616.72-002.772+616-08-039.71

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) Contents**  
**of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Mahmudova Guljamol Fazliddin qizi**

Eksperimental revmatoid artritda taloqning morfologik xususiyatlari va  
patogenetik davolashdan keyingi morfometrik o'zgarishlarning qiyosiy  
tavsifi..... 3

**Махмудова Гулжамол Фазлиддин кизи**

Сравнительная характеристика морфологических особенностей  
селезенки при экспериментальном ревматоидном артрите и  
морфометрических изменений после патогенетического лечения..... 21

**Makhmudova Guljamol Fazliddin kizi**

Comparative characteristics of the morphological features of the spleen in  
experimental rheumatoid arthritis and morphometric changes after  
pathogenetic treatment..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.04/29.02.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAHMUDOVA GULJAMOL FAZLIDDIN QIZI**

**EKSPERIMENTAL REVMATOID ARTRITDA TALOQNING**  
**MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA PATOGENETIK DAVOLASHDAN**  
**KEYINGI MORFOMETRIK O'ZGARISHLARNING QIYOSIY TAVSIFI**

**14.00.02 – Morfologiya**

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tib3475 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turdiyev Mashrab Rustamovich**

tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulov Hamidullo Abdullaevich**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Oripov Firdavs Sur'atovich**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Abu Ali ibni Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 14 iyul soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy. e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( № \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan), (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy. e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 3 iyul kuni tarqatildi.

(2025 yil 3 iyuldagi 39 raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.J. Teshayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor

**N.Q. Do'stova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

**A.R. Obloqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda immun tizimi faoliyatining buzilishi bilan bog'liq kasalliklarning ortib borishi kuzatilmoqda, «...zamonaviy jamiyat salomatligining holati immun reaktivlikning pasayishi, natijada, o'tkir va surunkali kasalliklarning ko'payishi bilan tavsiflanadi...»<sup>1</sup>. Immun tizimi organizmning eng murakkab avtonom boshqaruv tizimlaridan biri hisoblanadi, uning morfofunktsional buzilishlari autoimmun va infeksiyon xarakterdagi og'ir asoratlarga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra (JSST, 2023), «...2019 yil holatida, dunyo bo'ylab 18 million kishi revmatoid artritdan aziyat chekkan. Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarning taxminan 70% ayollar, 55% esa 55 yoshdan oshgan odamlardir...»<sup>2</sup>. Immun tizim faoliyatining buzilishi revmatoid artritning boshlanishi va davomiyligida asosiy rol o'ynaydi, bu kasallikning asosida yotgan immunologik o'zgarishlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda immun tizimi a'zolarining tuzilishi va funksiyasining o'ziga xos xususiyatlari, markaziy va periferik a'zolari asosiy tuzilmalarining morfometrik ko'rsatkichlari, postnatal ontogenez bosqichlarida ushbu a'zolarining rivojlanish xususiyatlarini baholashga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada oq zotsiz kalamushlar talog'ining yoshga bog'liq me'yoriy, revmatoidli artritda va patogenetik davo hamda anor danagi moyi qo'llanilganidan keyingi morfofunktsional ko'rsatkichlarini asoslash, revmatoidli artritda taloq struktur tuzilmalari morfofunktsional ko'rsatkichlarini sog'lom laboratoriya hayvonlari ko'rsatkichlari bilan taqqoslash, yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyini revmatoidli artritda qo'llaganda ularning talog'ida kuzatiladigan morfologik va morfometrik o'zgarishlarini o'rganish talab etiladi. Me'yorda, revmatoidli artrit va patogenetik davo hamda anor danagi moyi qo'llanilganidan keyingi taloq organometrik ko'rsatkichlari o'zgarishining yoshga bog'liq o'ziga xosliklari, morfologik o'zgarishlarini qiyoslash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda tibbiyot tizimini jahon andozalari talablariga moslashtirish, immun tizimining zararlanishi natijasida rivojlanadigan autoimmun belgilar bilan kechuvchi kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilangan, bunda «...mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamni samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllashtirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish...» dolzarb vazifalardir. Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi revmatoid artritda taloqni zararlanishi bilan bog'liq organizmda rivojlanadigan immun tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash, yuzaga keladigan asoratlarini oldini olishda zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarish va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishda ilg'or texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirish orqali immun tizim bilan bog'liq kasalliklar asorati natijasidagi nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish

<sup>1</sup> Бибик Е.Ю., Брест А.Ю. Современные представления о морфогенезе первичного лимфоидного органа // Український морфологічний альманах, – 2011, – Том 9, – № 3. – С.43-46.

<sup>2</sup> World Health Organization, 28 июня 2023 г. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/rheumatoid-arthritis>

imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi, 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199 son «Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»<sup>3</sup> gi farmonlari, shuningdek, ushbu faoliyat sohasiga oid boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Revmatoid artrit (RA) zamonaviy revmatologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu, birinchi navbatda, uning keng tarqalganligi, har qanday yoshda, shu jumladan mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarda uchrash, doimiy progressivligi va ko'pincha nogironlikka olib kelishi bilan bog'liq.

Turli mamlakat olimlari tomonidan puntsik kislotasi va uning hosilalarini inson organizmida uchraydigan ko'plab morfofunktsional o'zgarishlardagi dorivor xususiyatlari va xossalari o'rganganilgan. Tadqiqotlar davomida anorning uzoq zanjirli to'yinmagan yog'li kislotasining kuchli antioksidant xususiyati aniqlangan, shuningdek, sitokinlarni ingibirlash orqali yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega, hujayralar differentsiatsiyasini rag'batlantiradi va antimutagen ta'sir ko'rsatadi (Banihani S.A., Makahleh S.M., 2020). Bundan tashqari, RA immunitet va autoimmun o'zgarishlar, immunogenetika, jinsiy dimorfizm kabi tibbiyotning asosiy nazariy muammolarini o'zida mujassam etgan (Nasanov Ye.L., 2023). RAning tarqalishi juda yuqori bo'lib, umumiy aholining o'rtacha 0,7% da uchraydi. So'nggi yillarda yillik kasallanish ko'rsatkichi ham nisbatan yuqori bo'lib, 0,02% ni tashkil qiladi (Muravyov Yu.V., 2019).

Revmatoid artritning sabablari aniqlanmagan. Xavf omillari orasida chekish, semirish va atrof-muhitning ifloslanishi alohida ahamiyatga ega. Ayollar va keksa odamlarda RA rivojlanish xavfi yuqori (Nasanov Ye.L., va hammual., 2018). Hozirgi vaqtda ma'lumki, hujayraviiy va gumoral gomeostazni ta'minlaydigan adaptiv immunitet funksiyasi immun tizimi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning morfologik asosini limfoid to'qima tashkil etadi, u funksional tuzilmalardan tashkil topgan bo'lib, ulardan eng yirigi taloq hisoblanadi (Volkov V.P., 2015). Immunologiyaning jadal rivojlanishi bilan morfologlarning immun tizimning muhim periferik a'zosi bo'lgan taloqning tuzilishi va funksional xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda (Shapkin Yu.G., va hammual., 2009., Makalish T. P., 2013; Auerbach A., 2014).

Revmatoid artrit bo'g'imlarning zararlanishi, jigar, taloq, limfa tugunlarining kattalashishi, yaqqol leykopeniya, tizimli zararlanishlar, oyoq terisining giperpigmentatsiyasi va og'ir asoratlar rivojlanish xavfi bilan kechadi (Jabborov O.O., 2022). Autoimmun o'zgarishlar bilan kechadigan revmatoid artritda sinovial pardaning qismlari immun tizimi tomonidan begona sifatida qabul qilinadi. Revmatoid omil va

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son Farmoni [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

anti-sitrulinlangan protein antitelalari RAning rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan autoantitelalarning ikkita misolidir. RAning rivojlanishi immun hujayralari, shu jumladan T, B va tug'ma immun hujayralari o'rtasidagi o'zaro ta'sir tufayli kelib chiqadi (Rustamovna A.K., Amrillayevich A. I., 2024).

O'zbekistonda revmatoid artritning kelib chiqish xavf omillari, rivojlanish mexanizmi, belgilari va asoratlari, shuningdek, turli a'zo va tizimlar faoliyatiga ta'sirining morfologik o'zgarishlari o'rganilgan (Abdushukurova K., 2024; Qahhorova Sh.T., 2023; Vohidov J.J., 2023; Umarov F.X., 2024), biroq revmatoid artrit va yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda anor danagi moyi ta'siridagi oq zotsiz kalamushlar talog'i morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarining yoshga bog'liq o'zgarishlari baholanmagan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, revmatoid artritda va yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda anor danagi moyining immun tizim, ayniqsa, taloq morfofunksional holatiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar yetarlicha o'rganilmagan.

**Tadqiqotning maqsadi** eksperimental revmatoid artritda va yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda anor danagi moyi ta'sirida oq zotsiz kalamushlar talog'ining morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganishdan iborat bo'lgan.

**Tadqiqot vazifalari:**

18 va 24 oylik oq zotsiz kalamushlar talog'ining yoshga oid me'yoriy morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish;

revmatoid artritda oq zotsiz kalamushlar talog'ining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini aniqlash va baholash;

revmatoidli artritda va yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda anor danagi moyi qo'llanilganida oq zotsiz kalamushlar talog'ining morfologik va morfometrik o'zgarishlarini sog'lom oq zotsiz kalamushlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

revmatoid artritda va yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda anor danagi moyi ta'sirida oq zotsiz kalamushlar talog'ida yuzaga keladigan immunogistokimyoviy o'zgarishlarni qiyosiy baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida 100 ta 350-500 gr og'irlikdagi 18-24 oylik oq zotsiz kalamushlar o'rganilgan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib taloq to'qimasining turli qismlaridan olingan gistologik materiallar xizmat qilgan.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda tajribaviy, gistologik, morfologik morfometrik, gistoximik, immunogistokimyoviy va statistik usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

me'yorda, revmatoid artrit va nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita hamda anor danagi moyi korreksiyasi ta'sirida 18-24 oylik oq kalamushlar talog'i limfoid tuzilmalarining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili o'tkazilgan va natijalari asoslangan;

eksperimental revmatoid artritda oq zotsiz kalamushlar talog'ining qizil va oq pulpasi umumiy maydoni, periarterial limfatik muftalar, limfatik follikulalar germinativ markazlari, mantiya va marginal sohalari diametrining oshishi asoslab berilgan;

ilk marotaba revmatoid artritda taloqda T, B- limfotsitlar, makrofaglar soni va

faolligini oshishi, hamda yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyini qo'llash oq zotsiz kalamushlar talog'ining funksional faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatishi isbotlab berilgan;

tajribada eksperimental revmatoid artritis va nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita hamda anor danagi moyi ta'sirida oq zotsiz kalamushlar talog'ida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlarning immunogistokimyoviy xususiyatlari o'rganilgan va baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

revmatoid artritisda oq zotsiz kalamushlar talog'iga nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita hamda anor danagi moyi ta'sirini o'rganish, yoshga bog'liq yuzaga keladigan morfologik va morfometrik o'zgarishlar darajasini aniqlash imkonini bergan;

kalamushlar talog'ida revmatoid artritisda kuzatiladigan o'zgarishlarni aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazishning bosqichma-bosqich metodologiyasi ishlab chiqilgan va tibbiy amaliyotga tavsiya etilgan;

tadqiqotda olingan ma'lumotlar, revmatoid artritisda yuzaga keladigan immun faoliyat buzilishining rivojlanishini erta bosqichlarda aniqlash, oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni bashorat qilish va samarali davolash usullarini takomillashtirishga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy-tadqiqot ishida foydalanilgan zamonaviy, bir-birini to'ldiruvchi morfologik, va statistik tadqiqot usullarining to'g'ri qo'llanganligi, shuningdek morfologik materialning yetarli miqdori, tadqiqot materiallari statistik usullarda qayta ishlanganligi, olingan natijalarning mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarning ma'lumotlari bilan solishtirilganligi, olingan natijalar va xulosalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati taloq struktur tuzilmalarining morfologiyasi va ularda yuzaga keladigan o'zgarishlarni o'rganish natijalari, organizmda revmatoidli artritisda kuzatiladigan yoshga bog'liq immun faoliyat buzilish jarayonlarining murakkab mexanizmlarini ochib berishi, immun tizimi va a'zolari haqidagi bilimlar darajasini oshirishi bilan izohlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati revmatoid artritisda taloq struktur tuzilmalarida yuzaga keladigan o'zgarishlarni profilaktika qilish tartibini ishlab chiqish, kasallikda va asoratlari rivojlanganda davo usullarini takomillashtirish, kasallanish bilan bog'liq immun faoliyat buzilish holatlarini erta tashxislash, yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyining taloq struktur tuzilmalaridagi o'zgarishlarga ta'siri samaradorligini baholash, shuningdek, tadqiqot natijalaridan amaliy tibbiyotda immunologiya, gematologiya, revmatologiya sohalarida, anatomiya, gistologiya va patofiziologiya fanlari bo'yicha ma'ruzalarda foydalanish mumkinligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Olingan ilmiy natijalarga asoslanib, me'yoriy, revmatoidli artritis va revmatoidli artritisda yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda anor danagi moyini qo'llash ta'sirida oq zotsiz kalamushlar talog'ining morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy ko'rsatkichlari asosida:

*birinchi ilmiy yangilik:* me'yorda, revmatoid artritis va nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita hamda anor danagi moyi korreksiyasi ta'sirida 18-24 oylik oq kalamushlar talog'i limfoid tuzilmalarining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili natijalari asoslangan. *Ilmiy yangilikning ahamiyati:*



eksperimental revmatoid artritda yuzaga keladigan taloqdagi morfologik va morfometrik o'zgarishlari natijasidagi patologik jarayon inobatga olinib, davolash natijalarini yaxshilashga ko'maklashadi, natijada kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlarni kamaytirib, shifo jarayonini tezlashtiradi. *Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi:* olingan ilmiy-amaliy ma'lumotlar Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1051 hamda, Peshko' tuman tibbiyot birlashmasi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1049- son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etildi. *Ijtimoiy samaradorligi:* revmatoid artrit kasalligida taloqda kuzatiladigan morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarni o'rganish hamda patogenetik davo va bir vaqtda anor danagi moyini qo'llash kasallikni asoratlari va nogironlik holatlarini kamaytirish orqali tadqiqotning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* revmatoid artritda taloq struktur tuzilmalarini morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish, patogenetik davo va parallel ravishda anor danagi moyini qo'llash orqali davo samaradorligini oshirish, shifoxonada hamda ambulator davo muddatini qisqartirish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Bu tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablag'ni 193000 so'mgacha tejash imkonini bergan.

*ikkinchi ilmiy yangilik:* eksperimental revmatoid artritda oq zotsiz kalamushlar talog'ining qizil va oq pul'pasi umumiy maydoni, periarterial limfatik muftalar, limfatik follikulalar germinativ markazlari, mantiya va marginal sohalari diametrining oshishi asoslangan. *Ilmiy yangilikning ahamiyati:* eksperimental revmatoid artritda autoimmun jarayon natijasida yuzaga keladigan taloqdagi barcha morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarning oshishi kuzatildi. *Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi:* olingan ilmiy-amaliy ma'lumotlar Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1051 hamda, Peshko' tuman tibbiyot birlashmasi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1049- son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etildi. *Xulosa:* eksperiment davomida taloqdagi morfofunktsional o'zgarishlarni o'rganish, morfologik hamda morfometrik ko'rsatkichlarning oshishi, korreksiyadan keyin esa yallig'lanish kamayishi hisobidan natijalar me'yoriy ko'rsatkichlarga yaqinlashganini o'rganish revmatoid artritda organometrik o'zgarishlarni hisobga olib shifoxonada va ambulator davo muddatini qisqarishiga olib keladi. Ilmiy yangilikdan kengaytirilgan holda foydalanishi: "Eksperimental revmatoid artritda taloqning morfologik ko'rsatkichlarini aniqlash usuli" mavzusida ilmiy yangilikni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Buxoro davlat tibbiyot instituti ekspert kengashi raisiga Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori tomonidan 2025. 07.05 yil 17/37-son xat yuborilgan. Mazkur uslubiy tavsiyanoma revmatoidli artrit kasalligida taloqdagi morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy o'zgarishlarni aniqlash, patogenetik davo usullarini takomillashtirish va anor danagi moyini qo'llash haqida tavsiyalar berish imkonini bergan. *Ijtimoiy samaradorligi:* revmatoid artrit kasalligida taloqda kuzatiladigan morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarni o'rganish hamda patogenetik davo va bir vaqtda anor danagi moyini qo'llash kasallikni asoratlari va nogironlik holatlarini kamaytirish orqali tadqiqotning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* revmatoid artritda taloq struktur tuzilmalarini morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish, patogenetik davo va parallel ravishda anor danagi moyini qo'llash orqali

davo samaradorligini oshirish, shifoxonada hamda ambulator davо muddatini qisqartirish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Bu tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablag'ni 193000 so'mgacha tejash imkonini bergan.

*uchinchi ilmiy yangilik:* ilk marotoba revmatoid artritda taloqda T, B-limfotsitlar, makrofaglar soni va faolligini oshishi, hamda yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyini qo'llash oq zotsiz kalamushlar talog'ining funksional faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatishi isbotlangan; *Ilmiy yangilikning ahamiyati:* eksperimental revmatoid artritda davо uchun uchun nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita hamda parallel ravishda anor danagi moyini birgalikda qo'llash tuzalish jarayonini tezlashtirdi. *Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi:* olingan ilmiy-amaliy ma'lumotlar Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1051 hamda, Peshko' tuman tibbiyot birlashmasi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1049- son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etildi. *Ijtimoiy samaradorligi:* revmatoid artrit kasalligida taloqda kuzatiladigan morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarni o'rganish hamda patogenetik davо va bir vaqtda anor danagi moyini qo'llash kasallikni asoratlari va nogironlik holatlarini kamaytirish orqali tadqiqotning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* revmatoid artritda taloq struktur tuzilmalarini morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish, patogenetik davо va parallel ravishda anor danagi moyini qo'llash orqali davо samaradorligini oshirish, shifoxonada hamda ambulator davо muddatini qisqartirish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Bu tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablag'ni 193000 so'mgacha tejash imkonini bergan.

*to'rtinchi ilmiy yangilik:* tajribada eksperimental revmatoid artrit va nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita hamda anor danagi moyi ta'sirida oq zotsiz kalamushlar talog'ida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlarning immunogistokimyoviy xususiyatlari aniqlangan. *Ilmiy yangilikning ahamiyati:* eksperimental revmatoid artritda autoimmun jarayon natijasida CD3 va CD20 markerlarining ekspressiyalanish darajasi oshganligi hamda davodan keyin normal ko'rsatkichlarga yaqinlashgani o'rganildi. *Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi:* olingan ilmiy-amaliy ma'lumotlar Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1051 hamda, Peshko' tuman tibbiyot birlashmasi bo'yicha 04.02.2025 yildagi 04/1049- son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etildi. *Ijtimoiy samaradorligi:* revmatoid artrit kasalligida taloqda kuzatiladigan morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarni o'rganish hamda patogenetik davо va bir vaqtda anor danagi moyini qo'llash kasallikni asoratlari va nogironlik holatlarini kamaytirish orqali tadqiqotning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* revmatoid artritda taloq struktur tuzilmalarini morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish, patogenetik davо va parallel ravishda anor danagi moyini qo'llash orqali davо samaradorligini oshirish, shifoxonada hamda ambulator davо muddatini qisqartirish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Bu tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablag'ni 193000 so'mgacha tejash imkonini bergan.

Ilmiy yangiliklarni sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha

Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 7-maydagi 17-sonli yigʻilish bayonnomasiga asosan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga tadbigʻi buyicha xulosa olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy konferensiyada, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʻlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 24 ta ilmiy maqola chop etilgan boʻlib, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya yetilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, toʻtta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari hamda olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ilmiy ish natijalarining nashr qilinganligi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Taloqning meʼyoriy, revmatoid artrit va patogenetik davo taʼsiridagi morfofunktsional xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi bobida soʻnggi yillarda ushbu mavzu boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan boʻlib, unda muammoning hozirgi holati boʻyicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar maʼlumotlari tahlil qilingan. Ushbu bob besh paragrafdan iborat boʻlib, ularda adabiyotlardan olingan maʼlumotlar umumlalashtirilgan va muammoning dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot materiallari va usullari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti, predmetlari hamda unda qoʻllaniladigan statistik usullar keltirilgan.

Tadqiqotni amalga oshirish maqsadida 100 ta aralash jinsdagi, 350-500 gr ogʻirlikdagi 18-24 oylik oq zotsiz kalamushlar tanlangan. Tajriba hayvonlari 3 ta guruhga ajratilgan: birinchi - nazorat guruhi - laboratoriya hayvonlari (n=20) standart vivariy ratsioni bilan boqilgan, sogʻlom kalamushlar; ikkinchi guruh - laboratoriya hayvonlari (n=40) standart vivariy ratsioni bilan boqilgan, adyuvant Freynd bilan revmatoid artrit chaqirtirilgan kalamushlar; uchinchi guruh - laboratoriya hayvonlari (n=40) standart vivariy ratsioni bilan boqilgan, revmatoid artrit chaqirtirilgan kalamushlarga 2 hafta davomida yalligʻlanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyi qoʻllanilgan kalamushlar.

Tajriba sharoitida hayvonlarda revmatoid artritni modellashtirish 0,1 ml miqdordagi adyuvant Freyndni (CFA- Freund's Adjuvant) intradermal ravishda oq kalamushlar orqa oyoqlarining yostiqlariga bir marta yuborish orqali amalga oshirilgan. Yalligʻlanishga qarshi nosteroid vosita - meloksikam 1 mg / kg miqdorda mushak orasiga va 0,7 ml/kg miqdordagi anor danagi moyi metal zond yordamida oshqazonga kuniga bir marta 14 kun davomida yuborilgan.

Laboratoriya hayvonlari efir narkozi ostida dekapitatsiya qilish orqali tajribadan

chiqarilgan. Qorin bo'shligi ochilib, taloq ajratib olingan, 10% - formalin neytrallangan eritmasida fiksatsiya qilingan, keyin oqar suvda 2 soat yuvilib, suvsizlantirish uchun konsentrasiyasi oshib boruvchi spirtlardan o'tkazilgan va parafinli g'ishtchalar tayyorlangan. Parafin bloklar 3-5 mkm qalinlikda kesilib, gematoksillin-eozin va van-Gizon usullarida bo'yalgan. Taloq mikropreparati gistologik tuzilmalari okulyar-mikrometr yordamida morfometrik tekshirilgan. Tajribada gistologik, raqamli tasvirlardan foydalanib, nazorat hamda tajriba guruhlaridagi 18-24 oylik oq zotsiz kalamushlar talog'i massasi, qizil va oq pulpa, venoz sinuslar maydoni, venoz sinuslar, oq pulpa, PALM, limfatik follikulalar germinativ markazlari, mantiya, marginal sohalari diametri, marginal soha tarkibidagi makrofaglar soni kabi morfometrik ko'rsatkichlar o'lgan. O'lchovlar har bir gistologik kesmaning beshta ko'rish maydonida amalga oshirilgan. Ko'rish maydonlari tasodifiy ravishda tanlangan.

Taloq limfoid tuzilmalarining sitoarxitektonikasini o'rganish maqsadida, EAKINS Model HL-19 (Xitoy) trinokulyar raqamli mikroskopi yordamida, 10x100 kattalashtirilgan holda, moyli immersiya ostida, hujayralarning soni sanalgan. Hujayralarning sonini sanash mikroskop okulyariga o'rnatilgan morfometrik setka yordamida amalga oshirilgan. Kesma maydoni birligida marginal soha tarkibidagi makrofaglar umumiy soni aniqlangan.

Immunogistokimyoviy usul yordamida, monoklonal antitelalardan foydalanilgan holda, revmatoid artritis va revmatoid artritisda yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita hamda parallel ravishda anor danagi moyi qo'llanilgan 18-24 oylik oq zotsiz kalamushlar talog'i immunogistokimyoviy marker (CD3, CD20) larini ekspressiyasizlanish darajasi aniqlangan.


Tadqiqot davomida olingan gisto- va sitomorfometrik ma'lumotlarga matematik ishlov berish Pentium-IV personal kompyuterining Microsoft Office "Excel 7,0" amaliy dastur paketi orqali bevosita amalga oshirilgan.

Tadqiqot ma'lumotlarini statistik qayta ishlash Strelkov (1986) jadvalidan foydalanilgan holda, variatsion parametrik statistik usullar yordamida amalga oshirilgan. Taqqoslangan qiymatlardagi farqlarning ahamiyati Student t-mezeni yordamida baholangan. Farqlar  $p \leq 0,05$  qiymatlarda statistik ahamiyatga ega deb hisoblangan.

Dissertasiyaning **"Me'yorda va eksperimental revmatoid artritisda taloqning morfologik xususiyatlari bo'yicha xususiy tekshiruv natijalari"** deb nomlangan uchinchi bobi nazorat guruhida va eksperimental revmatoid artritisda taloqning morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish natijalariga bag'ishlangan. Sog'lom oq zotsiz kalamushlar talog'ining struktur tuzilmalari va funksional holatini yoshga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan. Taloq umumiy og'irligi 24 oylik oq kalamushlarda 18 oylik oq kalamushlarnikiga nisbatan 1,07 martaga kamaydi. Qizil (mos holda  $97757,29 \pm 1,33$ ;  $74124,45 \pm 1,15$  mkm<sup>2</sup>) va oq (mos holda  $77985,61 \pm 1,53$ ; 24 oylik  $59129,16 \pm 1,16$  mkm<sup>2</sup>) pulpa maydonining kamayishi, shuningdek limfoid tuzilmalardagi strukturaviy o'zgarishlar asosiy ko'rsatkichlar sifatida qayd etildi. Taloq venoz sinuslari maydoni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $77,351 \pm 1,29$  mkm<sup>2</sup> ni tashkil qilgan bo'lsa, 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda bu ko'rsatkich kamayib o'rtacha -  $64,119 \pm 1,45$  mkm<sup>2</sup> ga teng ekanligi aniqlangan. Venoz sinuslar diametri 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda 0,21 mkm dan 0,30 mkm gacha bo'lib, o'rtacha -  $0,25 \pm 0,01$  mkm ni va 24 oylik kalamushlarda

o'rtacha  $0,16 \pm 0,02$  mkm ni tashkil qilgan. Taloq oq pulpasi diametri 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda 24 oylik oq kalamushlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 1,12 martaga oshdi (1-rasm).

PALM diametri 18 oylik kalamushlarda o'rtacha -  $23,88 \pm 1,79$  mkmni, 24 oylik kalamushlarda esa o'rtacha -  $19,72 \pm 1,47$  mkm ni tashkil qilgan. 18 va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda taloq limfoid follikulalari mantiya sohasi diametri, 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda past qiymatga ega bo'lib, o'rtacha -  $19,72 \pm 0,55$  mkm ga teng. Nazorat guruhida taloq limfoid follikulalari germinativ markazlari diametri 24 oylik oq kalamushlarda 18 oylik oq kalamushlarnikiga nisbatan 1,11 martaga kamaygan. Taloq limfatik follikulari marginal sohasi diametri 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda 24 oylik oq kalamushlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, o'rtacha -  $55,05 \pm 0,52$  mkm ni tashkil qilgan.




**1-rasm. Nazorat guruhidagi 24-oylik oq zotsiz kalamush talog'ining mikroskopik ko'rinishi. Gematoksillin-eozin bilan bo'yalgan. 4x20 kattalashtirilgan. 1- qizil pulpa; 2- oq pulpa; c-marginal soha; b- mantiya sohasi; a- ko'payish (germinativ) markazi; d-periarterial limfatik mufta.**

Tajribada taloq rangi nazorat guruhiga nisbatan to'q qizil rangda, shakli odatda qirrali konussimon ko'rinishda, qirralari biroz yumaloqlashganligi, o'lchamlarining nisbatan kattalashganligi aniqlangan. Taloqning umumiy massasi 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $1257 \pm 8,15$  mg ni va 24 oylik kalamushlarda -  $1203,79 \pm 5,63$  mg ni tashkil qilgan. Qizil pulpa maydoni yosh davrlariga mos holda 1,18 – 1,28 marta oshgan. Taloq venoz sinuslari maydoni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda  $72 \text{ mkm}^2$  dan  $90 \text{ mkm}^2$  gacha bo'lib, o'rtacha-  $81,747 \pm 1,21 \text{ mkm}^2$  va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda  $64 \text{ mkm}^2$  dan  $82 \text{ mkm}^2$  gacha bo'lib, o'rtacha-  $73,118 \pm 1,11 \text{ mkm}^2$  ga teng bo'lgan. Revmatoid artrit chaqirilgan guruhda venoz sinuslar diametri 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $0,48 \pm 0,01$  mkm va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $0,31 \pm 0,03$  mkm ni tashkil qilgan. Oq zotsiz kalamushlar talog'i oq pulpa maydoni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $81673,12 \pm 3,11 \text{ mkm}^2$  ni va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $67249,54 \pm 2,17 \text{ mkm}^2$  ni tashkil qilgan (2-rasm).

Oq pulpa diametri yosh davrlariga mos holda 1,18 – 1,11 marta oshishi kuzatilgan. Taloq periarterial muftalari diametri revmatoid artrit chaqirilgan guruhda


oshib 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $136,21 \pm 1,33$  mkm ni, 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa  $124,17 \pm 1,24$  mkmni tashkil qilgan. Germinativ markazlari diametri 18 oylik kalamushlarda 147 mkm dan 171 mkm gacha bo'lib, o'rtacha -  $159,21 \pm 1,33$  mkm va 24 oylik kalamushlarda o'rtacha -  $143,19 \pm 5,22$  mkm ni tashkil qilgan. Limfatik follikulalar mantiya sohasi diametri yosh davrlariga mos holda 1,7 – 1,18 marta oshgan. Taloq limfatik follikulari marginal sohasi diametri revmatoid artritis chaqirilgan guruhda yosh davrlariga mos holda 1,22 – 1,15 marta oshgan. Tadqiqotda taloq limfatik follikulari marginal sohasidagi makrofaglar soni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda  $45,2 \pm 1,03$  ta dan  $123,4 \pm 1,3$  gacha va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda  $39,1 \pm 1,1$  ta dan  $98,4 \pm 1,08$  ta gacha oshganligi aniqlangan.



**2-rasm. Nazorat va tajriba guruhlaridagi oq zotsiz kalamushlar talog'i oq pulpasi maydonining yoshga bog'liq o'zgarishi (mkm<sup>2</sup>)**

Dissertatsiyaning “**Revmatoid artritisda korreksiya dan keyingi taloqning morfologik o'zgarishlari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida eksperimental revmatoid artritisda nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita (meloksikam) va parallel ravishda anor danagi moyi qo'llanilganda taloqning morfologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Revmatoidli artritisda yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyi qo'llanilgan guruhda taloq umumiy massasi 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $1205 \pm 7,12$  mg, 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa -  $1157 \pm 6,78$  mg ni tashkil qilgan. Yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita va anor danagi moyi ta'siridagi guruhda qizil pulpa maydoni kichrayib 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $98435,24 \pm 1,97$  mkm<sup>2</sup>; 24 oylik kalamushlarda esa -  $87561,19 \pm 2,01$  mkm<sup>2</sup> ga teng bo'lgan. (3-rasm)



**3- rasm. Nazorat va tajriba guruhlaridagi oq zotsiz kalamushlar talog'i qizil pulpasi maydonining yoshga bog'liq o'zgarishi (mkm<sup>2</sup>)**



Venoz sinuslar diametri 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda 0,31 mkm dan 0,44 mkm gacha bo'lib, o'rtacha -  $0,38 \pm 0,01$  mkm; 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa o'rtacha -  $0,25 \pm 0,05$  mkm ga teng bo'lgan. Venoz sinuslar maydoni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $74,381 \pm 1,19$  mkm<sup>2</sup> va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa o'rtacha -  $69,251 \pm 0,99$  mkm<sup>2</sup> ni tashkil qilgan. Oq pulpa maydoni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $79563,18 \pm 1,32$  mkm<sup>2</sup> ni, 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa -  $63215,27 \pm 1,25$  mkm<sup>2</sup> ni tashkil qilgan (1-jadval). Oq pulpa diametri esa 1,2 – 1,1 martaga kamaygan.

#### 1-jadval

#### Revmatoid artrit chaqirilgan va revmatoid artritda NyaQV hamda anor danagi moyi qo'llanilgan oq zotsiz kalamushlar talog'ining qiyosiy morfometrik ko'rsatkichlari.


Ko'rsatkichlar	Tajribadagi 2-guruh		Tajribadagi 3-guruh	
	18-oylik	24-oylik	18-oylik	24-oylik
Taloqning umumiy massasi(mg)	1257 $\pm$ 8,15	1203,79 $\pm$ 5,63*	1205 $\pm$ 7,12	1157 $\pm$ 6,78*
Qizil pulpa maydoni (mkm <sup>2</sup> )	115398,23 $\pm$ 2,36	195237,31 $\pm$ 2,45*	98435,24 $\pm$ 1,97	87561,19 $\pm$ 2,01*
Venoz sinuslar maydoni (mkm <sup>2</sup> )	81,745 $\pm$ 1,21	73,118 $\pm$ 1,11*	74,381 $\pm$ 1,19	69,251 $\pm$ 0,99
Venoz sinuslar diametri (mkm)	0,48 $\pm$ 0,01	0,31 $\pm$ 0,03	0,38 $\pm$ 0,01	0,25 $\pm$ 0,05
Oq pulpa maydoni (mkm <sup>2</sup> )	81673,12 $\pm$ 3,11	67249,54 $\pm$ 2,17*	79563,18 $\pm$ 1.32	63215,27 $\pm$ 1,25*
Oq pulpa diametri (mkm)	1384,73 $\pm$ 3,21	1157,43 $\pm$ 1,01*	1256,32 $\pm$ 5,47	1038,41 $\pm$ 4,21*
PALM diametri	136,21 $\pm$ 1,33	124,17 $\pm$ 1,24*	125,19 $\pm$ 1,11	119,14 $\pm$ 1,23
B-soha (mantiya) diametri (mkm)	41,88 $\pm$ 0,45	23,39 $\pm$ 0,19*	35,12 $\pm$ 0,21	21,78 $\pm$ 0,14*
Germinativ markazlar diametri (mkm)	159,21 $\pm$ 1,33	143,19 $\pm$ 5,22	145,24 $\pm$ 1,12	139,78 $\pm$ 1,01
Marginal soha diametri (mkm)	67,12 $\pm$ 0,11	57,21 $\pm$ 0,22*	60,14 $\pm$ 0,45	50,89 $\pm$ 0,32*
Marginal zona tarkibidagi makrofaglar soni (ta)	123,4 $\pm$ 1,3	98,4 $\pm$ 1,08*	95,2 $\pm$ 1,07	57,3 $\pm$ 1,1*

Izoh: \*belgisi bilan oq zotsiz kalamushlar talog'i morfometrik ko'rsatkichlarining revmatoid artrit chaqirilgan guruhga nisbatan ishonchlilik intervali ( $p < 0,05$ ) ko'rsatilgan.

Taloq periarterial muftalari diametri kamayib 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda 112 mkm dan 138 mkm gacha bo'lib, o'rtacha -  $125,19 \pm 1,11$  mkm; 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda 112 mkm dan 128 mkm gacha bo'lib, o'rtacha -  $119,14 \pm 1,23$  mkm ga teng bo'lgan. 18 va 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda taloq limfatik follikulalari mantiya sohasi diametri yallig'lanishga qarshi nostreoid vosita va anor danagi moyi ta'siridagi guruhda mos holda 1,2 – 1,07 marta kamaygan. Taloq limfatik follikulalari germinativ markazlari diametri mos holda 1,1 va 1,02 marta kamaygan. Marginal soha kengligi 18

oylik oq zotsiz kalamushlarda o'rtacha -  $60,14 \pm 0,45$  mkm; 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa o'rtacha -  $50,89 \pm 0,32$  mkm ga teng bo'lgan. (4-rasm)

Taloq limfatik follikulalari marginal sohasidagi makrofaglar soni 18 oylik oq zotsiz kalamushlarda mos holda  $123,4 \pm 1,3$  tadan  $95,2 \pm 1,07$  tagacha, 24 oylik oq zotsiz kalamushlarda esa mos holda  $98,4 \pm 1,08$  tadan  $57,3 \pm 1,1$  tagacha kamayganligi kuzatilgan.



**4-rasm. Nazorat va tajriba guruhlaridagi oq zotsiz kalamushlar talog'i oq pulpasi limfatik follikulalari marginal sohasi diametrining yoshga bog'liq o'zgarishi (mkm)**

